

## YAPON TILIDAN O‘ZBEK TILIGA BILVOSITA TARJIMANING AYRIM MUAMMOLARI SOME PROBLEMS OF DIRECT TRANSLATION FROM JAPANESE TO UZBEK LANGUAGE



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-22-209-213>

**Dildoraxon Shukurova Alisher qizi**

TDSHU, talaba

Ilmiy rahbar: PhD Xodjayeva Nilufar

### ANNOTATSIYA

*Xalqlarni, ularning adabiyotini bog‘lab turuvchi ko‘prik bu tarjimadir. Tarjimashunoslik esa tarjima jarayoni, uning tarixi, muammolari, nazariyasini o‘rganadi. Ushbu maqola tarjimashunoslik, tarjima qilish yo‘llari haqida bo‘lib, bunda yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimaning ayrim muammolari ko‘rsatib berilgan. Tarjima qilishdagi qiyinchiliklar, roman, hikoyadagi ayrim xatoliklar to‘g‘risida so‘z boradi. Maqolada tarjimaning hayotimizdagi o‘rni, tarjima asarlar haqida ma‘lumotlar bor. Yapon tilidan o‘zbek tiliga bevosita va bilvosita tarjima qilingan asarlardan misollar keltirilgan. Bilvosita tarjima nima, u qanday amalga oshirilishi haqida so‘z boradi. Yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimaning ayrim muammolarini aniqlash uchun qiyosiy-tahlil metodidan foydalanildi. Bunda yapon tilidagi aslyat matni rus tilidagi tarjimasiga hamda o‘zbek tilidagi tarjimasiga solishtirib o‘rganildi. Bunda aslyat hamda vositachi til tarjimasi bilan farqlari namoyon bo‘ldi. Ushbu farqlarni leksik-stilistik jihatlari tahlilga tortildi. Maqolada yapon tilidan o‘zbek tiliga rus tili vositasida tarjima qilinganda so‘z tanlash, shuningdek, uning yutuq, kamchiliklari, maqbul va nomaqbul jihatlari ko‘rib chiqildi. Xususan, yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarini yetkazib bera olish, bilvosita tarjimada matnning adekvatligi, so‘z tanlash muammolari, frazeologizmlar tarjimasi jihatlari tahlil qilindi.*

*Maqolada Xaruki Murakamining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romani tahlilga tortildi. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romani 1979-yilda yozilgan bo‘lib, yapon tilidan rus tiliga 2006-yilda Vadim Vyacheslavovich Smolenskiy tomonidan tarjima qilingan. Rus tilidan o‘zbek tiliga esa 2008-yilda Alisher Otoboyev tarjimani amalga oshirgan va “Jahon adabiyoti” jurnalida nashr qilindi. Ushbu asar o‘zbek kitobxonlari orasida yetarlicha mashhurlikka erishdi deya olaman. Xaruki Murakami zamonaviy yapon adabiyotining yirik namoyandalardan biri. Adib asarlari dunyo xalqlarining ellikdan ziyod tillariga tarjima qilingan, o‘nga yaqin milliy va xalqaro adabiy mukofotga sazovor bo‘lgan yozuvchi jahon adabiyoti rivojiga ta’sir ko‘rsatgan zabardast so‘z san’atkorlari qatorida o‘z o‘rniga ega.*

*Ushbu maqolada “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanining bilvosita tarjimadagi leksik-stilistik xususiyatlaridagi ustunlik tomonlari va qusurlarini quyida asardan berilgan parchalar orqali aniqlanadi.*

**Kalit so‘z va tushunchalar:** tarjima, bilvosita tarjima, aslyat, tarjima matn, Xaruki Murakami, “Shamol qo‘shig‘ini tingla”, Akutagava Ryunoske, “O‘rgimchak uyasining tolasi”, tarjima asarlar.

### АННОТАЦИЯ

*Перевод – это мост, соединяющий народы и их литературу. Перевод изучает процесс перевода, его историю, проблемы и теории. Эта статья посвящена переводоведению, способам перевода и показывает некоторые проблемы косвенного перевода с японского на узбекский язык. В рассказе есть трудности перевода, романы и некоторые ошибки. В статье содержится информация о роли перевода в нашей жизни, переводных произведениях. Приведены примеры произведений, прямо и косвенно переведенных с японского языка на узбекский. Что такое косвенный перевод и как он делается? Для выявления некоторых проблем косвенного перевода с японского на узбекский язык был использован метод сопоставительного*

анализа. Оригинальный японский текст сравнивался с русским и узбекским переводом. Существуют различия между оригиналом и переводом на промежуточный язык. Проанализированы лексико-стилистические аспекты этих различий. В статье рассматривается выбор слов при переводе с японского на узбекский через русский язык, а также его преимущества, достоинства и недостатки. В частности, анализировались способность передачи национально-культурных особенностей при косвенном переводе с японского языка на узбекский, адекватность текста при косвенном переводе, проблемы подбора слов, перевод фразеологизмов.

В статье анализируется роман Харуки Мураками «Послушайте песню ветра». «Послушайте песню ветра» была написана в 1979 году и переведена с японского языка на русский в 2006 году Вадимом Вячеславовичем Смоленским. Алишер Отабоев перевел ее с русского на узбекский в 2008 году и опубликовал в журнале «Жахон адабияти». Могу сказать, что это произведение довольно популярно среди узбекских читателей. Харуки Мураками — один из ярких представителей современной японской литературы. Произведения автора переведены более чем на пятьдесят языков и удостоены около десятка национальных и международных литературных премий.

В данной статье выявлены преимущества и недостатки лексико-стилистических особенностей косвенного перевода романа «Послушайте песню ветра» в следующих отрывках из произведения.

**Ключевые слова и понятия:** перевод, непрямой перевод, оригинальность, переводной текст, Харуки Мураками, «Послушайте песню ветра», Акутагава Рюноскэ, «Волокно паучьего гнезда», переводные произведения.

#### ABSTRACT

*Translation is a bridge connecting nations and their literature. Translation studies the process of translation, its history, problems and theories. This article is devoted to translation studies, methods of translation and shows some problems of indirect translation from Japanese into Uzbek language. The story has translation difficulties, novels and some errors. The article contains information about the role of translation in our life, translated works. Examples of works, directly and indirectly translated from Japanese into Uzbek language, are given. What is indirect translation and how is it done? To identify some problems of indirect translation from Japanese into Uzbek language, a comparative analysis method was used. The original Japanese text was compared with the Russian translation and the Uzbek translation. There are differences between the original and the intermediate language translation. The lexical and stylistic aspects of these differences are analyzed. The article discusses the choice of words when translating from Japanese into Uzbek through Russian, as well as its advantages, disadvantages, advantages and disadvantages. In particular, the ability to convey national and cultural characteristics during indirect translation from Japanese into Uzbek, the adequacy of the text during indirect translation, the problems of word selection, and the translation of phraseological units were analyzed.*

*The article analyzes Haruki Murakami's novel "Listen to the Song of the Wind". "Listen to the song of the wind" was written in 1979 and translated from Japanese into Russian in 2006 by Vadim Vyacheslavovich Smolensky. Alisher Otaboev translated it from Russian into Uzbek in 2008 and published it in the journal Jahon Adabiyati. I can say that this work is quite popular among Uzbek readers. Haruki Murakami is one of the brightest representatives of modern Japanese literature. The author's works have been translated into more than fifty languages and have won about a dozen national and international literary awards.*

*This article reveals the advantages and disadvantages of the lexical and stylistic features of the indirect translation of the novel "Listen to the song of the wind" in the following excerpts from the work.*

**Key words and concepts:** translation, indirect translation, originality, translated text, Haruki Murakami, "Listen to the song of the wind", Akutagawa Ryunosuke, "Spider Nest Fiber", translated works

### TARJIMA XALQLARNI TUTASHTIRUVCHI KO'PRIK

Tarjima juda murakkab shu bilan birga muhim jarayon hisoblanadi. Tarjima yordamida xalqlar o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yadi. Ulardan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar bo'lishi mumkin, shu jumladan, adabiy aloqalar ham millat ravnaqida yuksak o'rin egallaydi. Tarjima esa mamlakatlarni o'zaro bog'laydi va adabiyot, san'at, iqtisodiyotini rivojlantiradi. Hech bir xalq o'z-o'zidan taraqqiy etmaydi, bunga turli davlatlarda yaratilayotgan kashfiyotlar va yangiliklar yordam beradi, albatta, tarjima bu jarayonda faol ishtirok etadi. Xorij adabiyoti namunalarini tarjima qilish shu jihatdan ham juda muhim va bunga turli yo'llardan boriladi. Ulardan biri bilvosita tarjima hisoblanadi. Bilvosita tarjima asliyatdan bir tilga, undan so'ng boshqa tilga (vosita til orqali) tarjima amalga oshiriladi.

Ushbu maqolada yapon tilidan o'zbek tiliga bilvosita tarjimadagi ayrim qusurlarni ko'rib chiqamiz. Bilvosita tarjima vosita tarjima matnga qarab muvafaqqiyatli yoki muvafaqqiyatsiz bo'lishi mumkin. Chunki badiiy tarjimada ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi tarjimaning adekvatligi va shu bilan birga muhitni his qildira olishdir. Tarjima asarni o'qiyotgan kitobxon, asliyatni o'qigan kitobxon nimani his qilgan bo'lsa, shularni hammasini his qila olishi lozim. Shundagina tarjimon o'z ishini uddalagan bo'ladi. Tarjimada muallif uslubini yetkazib berish ham muhim hisoblanadi. Chunki, asarda muallif imzosi, o'ziga xosligi yotadi. Agarda tarjimon bularni yetkazib bera olmasa muallif uslubi yo'qolib ketadi va asliyatdagi kabi chiqmaydi. Bular yana ikkinchi tilga tarjima jarayoniga o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatadi va asliyatdagi his-hayajon yo'qolib qolishi mumkin.

Adabiyot bu so'z san'ati, shunday ekan, badiiy asarlar tarjimasi ham xuddi shu ta'rifga loyiq. Badiiy tarjima uchun til, uning grammatikasini bilishning o'zigina yetmaydi. Badiiy asar tarjimasi uchun tarjimonda iste'dod, qalamkashlik qobiliyati bo'lishi lozim. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasi bilan asosan shoir-yozuvchilar shug'ullanadilar. Negaki, asarni shunchaki so'zlarini tarjima qilib qo'yishning o'zi kifoya qilmaydi, tarjima qilinayotgan til egasi bo'lmish xalqning madaniyati, urf-odati, an'analari, o'ziga xosliklaridan ham xabardor bo'lishi lozim. Yapon millatining ko'plab o'ziga xosliklari bor bo'lib, ularning tarjimada aks ettirish biroz mushkul bo'lishi mumkin. Ulardan biri hurmat darajalari – keigo (hurmat tili). Yapon tilida uchta hurmat darajasi mavjud. Kamtarlik - *kenjyogo*, do'stlar bilan muloqotda qo'llaniladigan daraja - *teineygo* va yoshi katta hamda martabasi yuqori bo'lgan kishilar uchun ishlatiladigan – *sonkeygo* kabi turlari mavjud. Hurmat darajasida har bir qatlami uchun maxsus so'zlardan foydalaniladi. Misol uchun, qilmoq-する(します) fe'lining kamtarlik shakli - いたす(いたします), o'rta darajasi - なさる(なさいます) shaklida qo'llaniladi. Guvohi bo'lganimizdek, so'zlarning shakli har bir darajaga qarab o'zgarib ketadi. Shunga ko'ra tarjimon tarjima qilinayotgan xalqning madaniyati, o'ziga xosliklari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Yapon tilidan tarjima asarlar ko'plab amalga oshirilgan bo'lsada, barchasi bilvosita (vositachi til rus tili) tarjima qilingan. Ulardan Kobo Abening "Yashik odam", "Qumdagi xotin", Xaruki Murakami "Shamol qo'shig'ini tingla, Masaru Ibuka xokkulari, Akutagava Ryunoskening "O'n ieynlik pul", "Afsungarlik mo'jizalari", "O'rgimchak uyasining tolasi", "Tansiq taom" kabi hikoyalari bilvosita tarjima qilingan. Yuqorida ko'rsatilgan asarlarning asosiy qismi rus tilidan tarjima qilingan bo'lib, Masaru Ibukaning "Uchgacha ayni vaqti", "Uchdan keyin kech" asarlari esa ingliz tilidan yapon tiliga Nurmuhammad Nargiza tomonidan qiyoslab tarjima qilingan. Shu vaqtga qadar faqatgina Natsume Sosekining "Kokoro" romani bevosita yapon tilidan Nodira Aminova tomonidan tarjima qilingan.

Yapon tilidan o'zbek tiliga bilvosita tarjimaning so'z tanlash muammolarini Xaruki Murakami "Shamol qo'shig'ini tingla" romanidan misollar orqali ko'rib chiqamiz.

**Asliyat:** “翌日の朝、僕はその真新しいチクチクする T シャツを着てしばらく港の辺りをあてもなく散歩してから、目についた小さなレコード店のドアを開けた [1, 63,64]。

**Yapon tilidan Vadim Somolenskiy tarjimasini:** “На следующее утро я напялил обновку – она приятно покалывала тело – и пошел бродить по окрестностям порта [2].

**Rus tilidan Alisher Otaboyev tarjimasini:** “Эртаси куни эрталаб янги сарпони кийдим, у баданимга ёқимли санчиларди, ва бандаргоҳ атрофида тентирагани кетдим [3]. Yuqorida keltirilgan “チクチクする (chikuchiku suru)” – chars-churs ya’ni xuddi tok urgandek bo’lgan holat uchun ishlatiladigan yapon tilidagi taqlid so’z bo’lib, rus tiliga tarjima qilish jarayonida shakli saqlab qolinmagan va o’zbek tiliga ham xuddi shunday tarjima qilingan. Bunda taqlid so’zning tarjimada muqobili bo’lmagani sababli so’z birikmasi tarzida tarjima qilingan. Chunki yapon tilidan tarjima qilayotganda shu kabi taqlid so’zlarning adekvatini o’zbek tilida topish qiyin. Ushbu misolda bilvosita tarjimaning ta’siri bo’lgan, orada taqlid so’z yo’qoldi va so’z birikmasidan foydalanildi. Aynan shunday hollarda bilvosita tarjimaning qusurlarini ko’ramiz, ya’ni agar bevosita tarjima bo’lganida to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilib, “afsonaga ko’ra” deb berilishi mumkin edi. Shu sababli ham bevosita tarjima bilvosita tarjimadan ustun hisoblanadi.

**Asliyat:** レミントンのタイプライターを半年毎、に買いかえた、という伝説が残っている [1, 156]。

**Yapon tilidan Vadim Somolenskiy tarjimasini:** Согласно легенде, каждые полгода он покупал новую пишущую машинку «Ремингтон» [2].

**Rus tilidan Alisher Otaboyev tarjimasini:** Узунқулоқ гапларга қараганда, ҳар ярим йилда у янги “Ремингтон” ёзув машинкасини сотиб оларкан [3].

Yuqoridagi misolda “uzunquloq gaplar” iborasi tarjimasini ko’rib chiqamiz. Ma’nosi: uzunquloq gaplar og’izdan-og’izga o’tib yurgan, bir-biridan eshilib yetib kelgan gaplar. Misol: shum xabarning qulog’i bo’ladi deganday, uzunquloq gaplar Xorazmning qishloqlariga tarqaldi. J. Sharipov, “Xorazm” [4]. Asliyatta berilgan “伝説が残っている” rus tiliga quyidagicha tarjima qilingan: “Согласно легенде”(o’zbek tilida “afsonaga ko’ra”) to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilingan. Bu yerda tarjimon iborani o’zgartirgan ya’ni “afsonaga ko’ra” so’z birikmasini “uzunquloq gaplarga qaraganda” bilan almashtirgan. Ma’noda esa biroz o’zgarish bo’lgan, chunki “afsonaga ko’ra” so’z birikmasi bo’lgan voqeaning uydirmaligini bildiradi va uni o’qigan kitobxon gapni ijobiy baholaydi. “Uzunquloq gaplar” esa asosan g’iybatga nisbatan ishlatiladi va gap mazmunini biroz salbiylashtiradi. Bu joyda yozuvchi Xarfiled haqida gap boradi, u XX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan adib hamda yuqoridagi u bilan bog’liq holat biroz uydirmaligini hisobga olsak tarjimon “uzunquloq gaplar” deb gap mazmunini o’zgartirib yuborgan va gapga salbiy ma’no bergan. Lekin kontekstda hodisaning biroz uydirmaligiga urg’u berilganini hisobga olsak, “afsonaga ko’ra” birikmasi mos kelgan bo’lar edi.

Akutagava Ryunoske ijodida g’arb va yapon adabiyoti an’analarini o’zaro uyg’unlashtirib, yapon an’anaviy tasvir va ifoda usulini yangi yo’nalishga burgan. Quyida Akutagava Ryunoskening mashhur “O’rgimchak uyasining tolasi” nomli hikoyasidan parcha keltirmoqchiman, hamda tarjima matnini tahlil qilaman.

**Asliyat:** 泥棒のガンダラーでさえ、まるで血のプールにすすり泣きました。死にかけているカエルはそこで必死に奮闘している。

**To’g’ridan-to’g’ri tarjimasini:** Hatto o’g’ri Gandara ham qon havzasida yig’lab yubordi. O’layotgan qurbaqa u yerda umidsiz kurashmoqda.

**Yapon tilidan rus tiliga V. N. Markovoy tarjimasini:** Вот почему даже великий разбойник Кандата, захлебываясь кровью в Озере крови, лишь беззвучно корчился, как издыхающая лягушка.

**Rus tilidan Dilshod Nurilloh tarjimasini:** Qon ko’lining qonida cho’milib nafasi qaytayotgan buyuk qaroqchi Kandata ham joni uzilayotgan qurbaqadek unsiz tipirchilab qo’yardi, xolos [5].



Yuqoridagi tarjimalarni solishtirib shuni ko‘rishimiz mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima hamda Dilshod Nurilloh tarjimasida farqlar mavjud. Bular gaplarning qo‘shib yuborilgani va gapning ma‘nosini tushunarli berilganidir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima ma‘nosi g‘aliz va no‘noq jummalarni paydo qiladi. Tarjimona esa avval asliyati o‘qib his qilgach, tarjimada ma‘nolarni muqobili bilan beradi. Agarda yuqoridagi jumlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima shaklida berilgani, hech qanday ma‘no anglashilmagan bo‘lar edi. Bundan xulosa shuki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima badiiy asarlar tarjimasida doim ham o‘zini oqlamaydi va tarjimonga ijodkorlik mahorati suv va havodek zarur bo‘ladi.

Akutagava Ryunoske “Do‘zax azoblari” hikoyasidan parcha orqali yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjimada so‘z tanlash muammosini ko‘rib chiqamiz.

**Aslyat:** 見た所は唯、背の低い、骨と皮ばかりに瘦せた、意地の悪さうな老人でございました

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi:** Men ko‘rganim past bo‘yli, ozg‘in, faqat suyaklari va terisi bo‘lgan yomon bir chol edi.

**Yapon tilidan rus tiliga Nataliya Isayevna Feldman tarjimasi:** Посмотришь на него – такой низенький, тощий, *кожа да кости*, угрюмый старик.

**Rus tilidan Saydi Umirov tarjimasi:** Ko‘rsangiz, pakana, ozg‘in, *eti ustuxoniga yopishgan*, qovog‘i soliq chol deysiz. Ushbu misolda “suyak va terisi bo‘lgan” so‘zlarini tarjimona tomonidan o‘zgartirilib “eti ustuxoniga yopishgan” deb berilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘xshatish rus tilida ham yapon tilidagi kabi teri va suyaklar deb berilgan, lekin o‘zbek tilida oddiy tarjimadan qochgan tarjimona ularni tushunarli bo‘lgan ekvivalenti bilan almashtirgan. Shakl saqlanib qolmagan bo‘lsada, ma‘no aniq yetkazib berilgan.

Bilvosita tarjima tarjimona orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu tarjima turi asarlarning dunyo bo‘ylab yoyilishiga yordam beradi. Tarjimona ham ancha yengillik yaratsada, uni hushyorlikka chorlaydi, vositachi til tarjimasida tushurib qoldirilgan ayrim so‘z yoki ma‘nolarni e‘tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilish lozim. Bilvosita tarjimada umuman tarjima jarayonida ko‘plab muammo va qiyinchiliklar mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- [1] - 村上春樹. 風の歌を聴け. – Y.: 講談社文庫, 2004.  
 [2] - <https://knijky.ru/books/slushay-pesnyu-vetra>  
 [3] - <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/xaruki-murakami-1949-yaponiya/xaruki-murakami-shamol-qushigini-tingla-roman/>  
 [4] - <https://uz.wiktionary.org/wiki/uzunquloq>  
 [5] - <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/akutagava-ryunoske-1892-1927-yaponiya/akutagava-ryunoske-o-rgimchak-uyasining-tolasi-hikoya>